

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI**

**«KELISHILGAN»**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim**  
**vazirligi**

“ ” 2020 y.

**«TASDIQLAYMAN»**

**Samarqand veterinariya**  
**meditsinasi instituti**  
**rektori X.B. Yunusov**



2020 y.

**5440100 – Veterinariya (faoliyat turlari bo‘yicha) va 5111000 – Kasb ta’limi**  
**(Veterinariya) ta’lim yo‘nalishlari negizidagi:**

- 5A440101 – Hayvonlarga tashxis qo‘yish va davolash
- 5A440102 – Veterinariya jarrohligi
- 5A440103 – Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi
- 5A440105 – Veterinariya sanitariyasi, veterinariya-sanitarlik ekspertizasi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash gigiyenasi
- 5A440107 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi va immunologiyasi
- 5A440108 – Hayvonlarning parazitli va yuqumli kasalliklari
- 5A440115 – Favqulotda vaziyatlarda veterinariya nazorati va jamoat sog‘lig‘ini saqlash

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus**  
**(ixtisoslik) fanlaridan**

**D A S T U R**

**Samarqand – 2020 y.**

## **Annotatsiya**

Dastur 5A440101-Hayvonlarga tashxis qo‘yish va davolash, 5A440102-Veterinariya jarrohligi, 5A440103-Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi, 5A440105-Veterinariya sanitariyasi, veterinariya-sanitarlik ekspertizasi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash gigiyenasi, 5A440107-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi va immunologiyasi, 5A440108-Hayvonlarning parazitli va yuqumli kasalliklari, 5A440115-Favqulotda vaziyatlarda veterinariya nazorati va jamoat sog‘lig‘ini saqlash magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun 5440100 – Veterinariya (faoliyat turlari bo‘yicha) va 5111000 – Kasb ta‘limi (Veterinariya) ta‘lim yo‘nalishlarining 2016/2017 o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **TUZUVCHILAR:**

- Narziyev B.D. - SamVMI “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida dotsenti
- Tashtemirov R.M. - SamVMI “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida dotsenti
- Niyozov H.B. - SamVMI “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti dekani, v.f.d., dotsent
- Bakirov B. - SamVMI “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida professori
- Ro‘ziqulov N.B. - SamVMI “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida mudiri, v.f.n., dotsent
- Salimov Yu.S. - SamVMI “Farmakologiya va toksikologiya” kafedrasida mudiri, v.f.d., dotsent
- Ibragimov F.B. - SamVMI “Veterinariya-sanitariya ekspertizasi va gigiyena” kafedrasida mudiri, v.f.n., dotsent
- Salimov H.S. - SamVMI “Epizootologiya, mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori
- Shopo‘latoza Z.J. - SamVMI “Epizootologiya, mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida mudiri, v.f.n., dotsent
- Tayloqov T.I. - SamVMI “Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasida mudiri, v.f.n., dotsent

Dastur Veterinariya profilaktikasi va davolash fakultetining 2020-yil 25-iyundagi № 14-sonli hamda Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakultetining 2020-yil 30-iyundagi № 11-sonli Kengashlari yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## KIRISH

5440100 –Veterinariya bakalavriat ta'lim yo'nalishi – qishloq xo'jaligi sohasidagi yo'nalish bo'lib, u hayvonlar orasida uchraydigan turli infeksiyon, invazion, yuqumsiz kasalliklar, turli jarohatlar, shikastlanishlar, parazitli kasalliklar va ularning qo'zg'atuvchilarini, rivojlanishini, epizootologiyasini, klinik belgilarini, tashxis qo'yish usullarini, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarini o'rganish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, chorvachilikda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari; chorva mollari kasalliklari va ularni oldini olish usullari; chorvachilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish; chorvachilik mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarga aylantirish; chorvachilik sohasi va xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilish; qishloq xo'jaligi menejmenti va marketing sohalariga ixtisoslashgan bakalavrlar tayyorlaydi va ularni tayyorlashning samarali metodlari va vositalari majmuini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish parazitlar, yuqumli, yuqumsiz kasalliklar, turli ochiq va yopiq jarrohlik kasalliklarini kelib chiqishi, tarqalishi, infeksiyon va invazion kasalliklarning klassifikatsiyasi, parazit xo'jayinlari, kasalliklarning hayvonlarga yuqish yo'llari, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi, qo'zg'atuvchilarining sistemikasi, anatomo-morfologiyasi, rivojlanishi, iqtisodiy zarari, epizootologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, patologo-anatomik o'zgarishlari tashxisi va qiyosiy tashxisi, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarining ilmiy va amaliy ahamiyatini o'rgatish borasida yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5440100 – Veterinariya (faoliyat turlari bo'yicha) va 5111000 – Kasb ta'limi (Veterinariya) ta'lim yo'nalishlari negizidagi 5A440101-Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash, 5A440102-Veterinariya jarrohligi, 5A440103-Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi, 5A440105-Veterinariya sanitariyasi, veterinariya-sanitarlik ekspertizasi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash gigiyenasi, 5A440107- Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi va immunologiyasi, 5A440108-Hayvonlarning parazitli va yuqumli kasalliklari, 5A440115-Favqulotda vaziyatlarda veterinariya nazorati va jamoat sog'lig'ini saqlash magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Veterinariya toksikologiyasi", "Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari", "Veterinariya xirurgiyasi", "Hayvonlarning yuqumli kasalliklari", "Veterinariya parazitologiyasi", va 6 ta umumkasbiy fanlar bo'yicha: "Veterinariya mikrobiologiyasi", "Veterinariya sanitariya ekspertizasi", "Veterinariya virusologiyasi", "Veterinariya farmakologiyasi", "Veterinariya diagnostikasi", "Operativ xirurgiya" test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olgan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

## **VETERINARIYA TOKSIKOLOGIYASI fani bo'yicha:**

Zaharlanishlardan keladigan iqtisodiy zarar. Zahar, dori va zaharlanish to'g'risida tushuncha. Zaharlanish manbalari. Zaharning tanaga tushish yo'llari. Tashqi va ichki sharoitning zaharlanishga ta'siri. Zaharlanishning o'ziga xos xususiyatlari. Zaharlangan hayvonga birinchi yordam ko'rsatish va asosiy davolash yo'llari. Fosfororganik pestitsidlar. Xlororganik pestitsidlar. Karbamatlar bilan zaharlanishlar. Nitrat va nitritlar bilan zaharlanishlar. Simob birikmalari bilan zaharlanish. Margimush birikmalari bilan zaharlanish. Mineral zaharlar bilan zaharlanishlar: qo'rg'oshin, mis, osh tuzi, sian, selen, molibden birikmalari, fosfor, temir, oltingugurt birikmalari bilan zaharlanishlar. Gerbitsidlar va o'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi moddalar (regulyatorlar) bilan zaharlanishlar. Respublikamizda ishlab chiqariladigan va qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan turli xil zaharli kimyoviy moddalar toksikologiyasi. Zaharli o'simliklar bilan zaharlanishlar. Sanoat chiqindilari va ozuqalar bilan zaharlanishlar. Ilonlar zahari bilan zaharlanishlar. Chayonlar va qoraqurt zahari bilan zaharlanishlar. Ari zahari bilan zaharlanishlar.

## **HAYVONLARNING ICHKI YUQUMSIZ KASALLIKLARI fani bo'yicha:**

Umumiy profilaktika. Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasining nazariy asosi – organizm va tashqi muhit aloqadorligi umumbiologik qonuni.

Dispanserlash – ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasining tashkiliy asosi. Poda sindromatikasi. Oziqa to'yimliliigi darajasining kartogrammasi. Klinik status. Modda almashinuvi darajasining kartogrammasi. Guruhli profilaktik davolash.

Hayvonlarni to'yimli oziqlantirish – dispanserlashning profilaktik bosqichidagi asosiy tadbir.

Umumiy terapiya asoslari. Davolash usullari: etiotrop, patogenetik, vikar, simptomatik, umumiy stimullovchi, fizio – va dietoterapiya. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklarini davolashning eng zamonaviy usullari: to'qima terapiyasi, biologik faol moddalar bilan davolash.

Infraqizil va ultrabinafsha nurlarning biologik ta'siri, manbalari, qo'llash qoidalari. Galvanoterapiya, Ionogalvanizatsiya. Darsonvalizatsiya. Diatermiya. UYUCH - terapiya.

Kasal hayvonlarni fiksatsiya qilish va klinik tekshirish usullari.

Terapevtik texnika. Dori vositalarini hayvon organizmiga og'iz orqali yuborish, teri osti, muskul orasi va vena qon tomiri in'eksiyalari.

Yurak va qon – tomir tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Perikardit (Travmatik va notravmatik), Hidroperikard. Miokard kasalliklari (miokardit, miokardoz, miokardiofibroz). Endokard kasalliklari. Yurak nuqsonlari. Qon tomir kasalliklari. Yurakka ta'sir etuvchi dorilarni kasal hayvonga qo'llash usullari. Perikardial punksiya.

Yurak va qon tomirlar tizimining ikkilamchi kasalliklarini davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Nafas tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari.

Yuqori nafas yo'llarining kasalliklari: rinit, laringit, gaymorit, frontit, aerofrontit.

O'pka va bronxlarning kasalliklari: bronxit, bronxopnevmoniya (aspiratsion, metastatik, atelektatik, gipostatik, yiringli-nekrotik), krupoz pnevmoniya, o'pka shishi va giperimiyasi, o'pka emfizemasi, plevrit, pnevmotoraks, gidrotoraks. Antibiotik eritmalarini kekirdak orqali yuborish usuli. Yulduzsimon nerv tuguni novokainli qamali.

Ikkilamchi respirator kasalliklar (pasterellyoz, otlar grippi, diktiokaulyozi va boshqalar) ni davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari.

Og'iz bo'shlig'ining kasalliklari: stomatit (kataral, yarali, follikulyar, difteritik, aftali).

Qizilo'ngach kasalliklari: yallig'lanish, tiqilish, spazm, kengayish.

Oshqozon oldi bo'limlarining kasalliklari: oshqozon oldi bo'limlarining gipo- va atoniyasi, katta qorin parezi, katta qorin timpaniyasi, travmatik retikulit va retikuloperitonit.

Me'da va ichaklarning kasalliklari: gastrit, shirdonning yallig'lanishi, shirdon yarasi, gastroenterit.

Oshqozonni yuvish. Parenteral in'eksiyalar. Magnitli zondlarni (Korobov va Mileksetyan zondlari) ishlatish. Klizma o'tkazish texnikasi.

Jigar kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Jigar asosiy funksiyalari: o't ishlab chiqarish, zararsizlantirish, pigmentlash, oqsil sintezlash, glikogen sintezlash, mochevina hosil qilish, depolash, homila gemodinamikasini boshqarish, klirens. O'tkir parenximatoz gepatit. Jigar distrofiyasi (gepatoz). Jigar sirrozi. Jigar absessi. O't-tosh kasalligi. Jigar kasalliklarining laborator tashxisi. Jigar kasalliklari paytida gepatotrop, antioksidant va vitamin tabiatli dori vositalarini ishlatish usullari. Jigar punksiyasi.

Ovqat hazm qilish tizimining ikkilamchi kasalliklarini (itlar o'lati, paratuberkulyoz, fatsiolyoz, askaridiaz, moneziyoz, xabertioz, bunostomoz va boshqalar) davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Siydik ayirish tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Nefrit, nefroz, nefroskleroz, pielonefrit, pielit, urotsistit, siydik pufagining kasalliklari, yirik shohli hayvonlarning surunkali gematuriyasi. Diuretiklarni ishlatish.

Siydik ayirish tizimining ikkilamchi kasalliklarini davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Asab tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Bosh miya anemiyasi va giperemiyasi. Oftob urishi va issiq eltishi. Meningit va meningoensefalit. Miya istisqosi. Mielit va ensefalomielit. Vegetativ nevrozlar: epilepsiya, eklampsiya, katalepsiya. Stresslar.

Asab tizimining ikkilamchi xususiyatli kasalliklarini (yuqumli ensefalomielit va boshqalar) davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Qon tizimining kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari.

Gemopoez (unitar va polipotent nazariyalar). Kamqonliklar: postgemorragik, gemolitik, gipoplastik va aplastik, alimentar (temir tanqisligi kamqonligi).

Qonni laborator tekshirishlarning kamqonlik kasalliklarini aniqlashdagi ahamiyati. Qondagi eritrotsitlar, leykotsitlar va gemoglobin miqdorini aniqlash. Leykoformulaning qon kasalliklarini aniqlashdagi ahamiyati. Temir saqlovchi preparatlar.

Qon tizimining ikkilamchi xususiyatli kasalliklarini (qon - parazitli kasalliklar, leykoz, zaharlanishlar va boshqalar) davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Modda almashinuvi buzilishi kasalliklari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari.

Oqsillar, uglevodlar va yog'lar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar: sog'in sigirlar ketozi, bug'oz sovliqlar ketonuriyasi, cho'chqalar ketonuriyasi, mioglobinuriya, alimentar distrofiya, semizlik kasalligi. Ketoza qarshi vositalar: SHarabrin suyuqligini qorin bo'shlig'iga yuborish; Ketost aralashmasini tayyorlash va ishlatish usullari.

Mineral moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar: alimentar osteodistrofiya, gipomagniemik tetaniya. Kalsiy va fosfor tuzlari. Alost aralashmasini tayyorlash va ishlatish usullari.

Gipomikroelementozlar. Gipokobaltoz. Gipokuprozo. Yod etishmavchiligi. Rux etishmavchiligi. Marganets etishmavchiligi. Ftorning ortiqchaligi. Ftor tetishmavchiligi. Borning ortiqchaligi. Seten etishmavchiligi. Selenning ortiqchaligi. Molibdenning ortiqchaligi. Nikelning ortiqchaligi. Mikroelement tuzlarini ishlatish.

Gipovitaminozlar: retinol etishmavchiligi, V guruhi gipovitaminozlari. Trivit, tetramag va boshqa vitaminli preparatlarni hayvonlarga ishlatish usullari.

Modda almashinuvi buzilishlarining laborator tashxisi: qondagi umumiy oqsil va qand, qon zardobidagi kalsiy, fosfor, karotin, keton tanachalari va ishqoriy zahira miqdorlarini aniqlash. Modda almashinuvi darajasining kartogrammasi.

Oziqa toksikozlari. Tarqalishi, iqtisodiy zarari, tasnifi, sindromlari va o'ziga xos xususiyatlari. Zaharlanishlar paytida birinchi yordam ko'rsatish tartibi.

Sifatsiz oziqalardan zaharlanishlar. Fotodinamik xususiyatli oziqalar, nitrat va nitritlar, gossipol, osh tuzi va karbamiddan zaharlanishlar. Trixodesmotoksikoz, ustilagotoksikoz, ayiqtovonlilardan zaharlanishlar, geliotropoksikoz.

Yosh hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari. Yosh hayvonlar organizmining o'ziga xos xususiyatlari. Dispepsiya, bronxopnevmoniya, raxit, alimentar kamqonlik, bezoar kasalligi, enzootik ataksiya, oq mushak kasalligi, qaytalovchi timpaniya, gastroenterit, gepatodistrofiya.

Parrandalarning yuqumsiz kasalliklari. Nafas tizimi kasalliklari: rinit, sinusit, pnevmoerotsistit. Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari: jig'ildonning tiqilishi, jig'ildonning yallig'lanishi, dispepsiya, kutikulit, gastroenterit. Modda almashinuvi buzilishi kasalliklari: A, S, D, E, K va V guruhi gipovitaminozlari, uratli diatez, apterioz, konnibalizm, peroz.

Parrandalarning vitaminlar va mineral moddalarga bo'lgan talabi.

### **VETERINARIYA XIRURGIYASI fani bo'yicha:**

Hayvonlarda uchraydigan shikast va shikastlanish to'g'risida tushuncha. Tasniflanishi. Shikastlanishda organizmining neyro-gumoral reaksiyasi. Shok, kollaps, hushdan ketish. Yallig'lanish jarayonlarining tasniflanishi. Aseptik va yiringli yallig'lanish jarayonlarining rivojlanish davrlari va bosqichlari. Har xil turga mansub hayvonlarda yallig'lanish jarayonining kechish xususiyatlari. Yallig'lanishni davolashning asosiy qoidalari va usullari. Jarohlik infeksiyasi to'g'risida tushuncha, uning rivojlanishida makro-mikro organizmlarning roli. Xirurgik infeksiyaning tasniflanishi va oldini olishning asosiy tamoyillari. Yiringli infeksiyaning asosiy shakllari-abscess, flegmona: klinik belgilari va xususiyatlari. Anaerobli infeksiya. Qo'zg'atuvchilari, anaerob infeksiyaning asosiy shakllari: gazli gangrena va chirituvchi infeksiya. Kasallik rivojlanishi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillari. Jarohat va jarohat kasalligi to'g'risida tushuncha. Jarohatning klinik belgilari, tasniflanishi, ularning klinik va morfologik tavsifi. Jarohatning bitish turlari. Birlamchi tortilish bo'yicha bitish. Ikkilamchi tortilish bo'yicha bitish. Qoraqo'tir hosil qilib bitish. Jarohatlarni davolash. To'qimalarning yopiq mexanik shikastlanishining ta'sir qiluvchi kuchga, shikastlanish darajasiga va joylashishiga bog'liqligi. Lat eyishlarning rivojlanish darajasi va klinik belgilari. Gematomalar. Limfoekstravazatlar, gemolimfoekstravazatlar. Kelib chiqish sabablari, klinik belgilari. Yopiq shikastlanishlarini oldini olish va davolash prinsiplari. Oqma va yaralarning etiopatogenezi. Davolash tamoyillari. Termik kuyishlar. Kuyish shikastining turli hayvonlarda kechish xususiyatlari. Kuyish darajalari, belgilari, oqibati va oldini olish. Kimyoviy va termo-kimyoviy kuyishlar, ularning xususiyatlari. Sovuq oldirish, sovuq qotish darajasi, rivojlanishi, klinik belgilari, oqibatlari maxalliy va umumiy davolash usullari. Suyaklar nekrozi va kariesi. Suyaklar sinishi va ularning tasniflanishi, suyaklar sinishida bitish jarayonlari. Davolash usullari. Suyak sinishlarining asoratlari, ularning oldini olish. Bo'g'im chiqishlari, gemartroz, yiringli sinovit va artritlar, davolash va oldini chora-tadbirlari. Paylar cho'zilishi va uzilishi; tendinitlar va tendovaginitlar. Kelib chiqishi va rivojlanishi, klinik belgilari, oldini olish va davolash usullari. Bosh soxasidagi jarohatlar. Yuz nervlari falajlanishi. Qizilo'ngach jarohati va unga yot jismlar tiqilishi. Yag'rin sohasidagi nekrotik jarayonlar. Yag'rin abscessi va flegmonasi. Ko'krak devori jarohatlari. Qorin devorining jarohati, gematomasi, limfoekstrovazati. Peritonitlar. Churralar to'g'risida tushuncha, turlari, klinikasi va davolash usullari. Balanopostitlar. Fimoz. Parafimoz. Jinsiy olatning lat eyishi, parezi, usmalari va falajlanishi. Axtalashdan keyingi asoratlari. Harakat azolarining statika va

dinamikasi. Oqsoqlanish turlari. Burdoqiga boqilayotgan buqachalarda axillis payining nekrozi va uzilishi, qoramollarda artroz kasalligi. Tuyoq kapsulasi kasalliklari. Barmoqlar anatomiyasi va fiziologiyasi. Deformatsiyaga uchragan tuyoqlar va ularni davolash. Qishloq xo'jalik hayvonlarni taqalash. Noto'g'ri taqalashdan kelib chiqadigan asoratlar. Barmoq anatomiyasi va fiziologiyasi. Deformatsiyaga uchragan tuyoqlar va ularni davolash. Hayvonlarini taqalash. Noto'g'ri taqalashdan kelib chiqadigan asoratlar. Tuyoqlarning revmatik yallig'lanishi. Yumshoq tovon tog'ayi nekrozi. Tuyoq bo'g'imining yiringli yallig'lanishi. Barmoqlar nekrobatsillyozi va oqsil kasalligida kelib chiqadigan asoratlar. Ko'z anatomiyasi va fiziologiyasi. Ko'zni tekshirish usullari. Kataral konyunktivit. Follikulyar konyunktivit. Yiringli konyunktivit. Yuzaki kataral keratit. Yuzaki yiringli keratit.

### **HAYVONLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI fani bo'yicha:**

Epizootologiya va uning umumiy hamda xususiy qismlari. Epizootologiyaning boshqa biologik hamda maxsus fanlar bilan bog'liqligi. Fanning rivojlanish tarixi va uning yutuqlari. Infeksion kasalliklarning etiologik omillari, tarqalishi dinamikasi, infeksiyon patologiyaning rivojlanish bosqichlari, harakatlantiruvchi kuchlari, klinik-sindromatik o'zgarishlar, patomorfologiya, zamonaviy diagnostikasi, davolash, profilaktik tadbirlar o'z ifodasini topgan. Umumiy epizootologiya. Infeksiya va infeksiyon kasalliklar. Immunitet va immunologik reaktivlik. Epizootik jarayon va uni harakatlantiruvchi kuchlar. Epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar. Veterinariya sanitariyasi. Bir necha tur hayvonlarga xos umumiy infeksiyon kasalliklar. Kavshovchi hayvonlarning infeksiyon kasalliklari. Otlarning infeksiyon kasalliklari. Cho'chqalarning infeksiyon kasalliklari. Yosh hayvonlarning infeksiyon kasalliklari. Parrandalarning infeksiyon kasalliklari. It va mo'ynali hayvonlarning infeksiyon kasalliklari.

### **VETERINARIYA PARAZITOLOGIYASI fani bo'yicha:**

Parazitologiya va uning tarkibiy qismlari. Parazitlar sistematikasi. Parazitologiyaning boshqa biologik hamda maxsus fanlar bilan bog'liqligi. Fanning rivojlanish tarixi va uning yutuqlari. Organizmlarning o'zaro munosabatlari. Parazitizmning kelib chiqishi va uning tabiatda tarqalishi. Parazitlar klassifikatsiyasi. Parazitlarning xo'jayinlari. Parazit xo'jayin tushunchasi. Invazion kasalliklarni nomlanishi. Invazion kasalliklar oqibatida sodir etiladigan iqtisodiy zarar. Invazion kasalliklarning tarqalishi, manbai va ularning yuqish yo'llari. Invazion kasalliklar kechishida tashqi muhitning ta'siri. Invazion kasalliklar epizootologiyasi va qarshi kurash tadbirlari. Hayvonlar fassiolyozi, hayvonlar paramfistomatozi, hayvonlar orientobilxarsiozi, hayvonlar dikrotseliozi va euritrematozi, qoramollar va cho'chqa sistitserkozi, kavshovchi hayvonlarning anoplotsefalyatozlari, bir tuyoqli hayvonlarning anoplotsefalyozi, askaridatozlar, otlarning paraskaridozi va cho'chqa askaridozi, otlarning oksiuroz va ichak



strongilyatozlari kavshovchi hayvonlarning oshqazon-ichak strongilyatozlari, diktiokaulyozi, qoramollar piroplazmoz, fransaiellyoz va babeziozi, qoramollar telyaziozi va cho'chqa trixinellyozi, qoramol teyleriozi, quyon eymeriozi. qoramollar trixomonozi, su-auru va qochiruv kasalliklari, psoroptoz, xorioptoz va sarkoptoz kasalliklari, qoramollar gipodermatozi qo'y estrozi, Otlarning rinestroz va gastrofillyozi.

### **VETERINARIYA MIKROBIOLOGIYASI fani bo'yicha:**

Mikrobiologiyaning umumiy va xususiy qismlari. Mikrobiologiya va uning rivojlanish tarixi, mikroorganizmlarning sistematikasi, morfologiyasi va fiziologiyasi. Mikroorganizmlarning tabiatda tarqalishi, moddalar almashinuvidagi roli, mikroorganizmlarga tashqi muhit omshllarining ta'siri. Infeksiya va immunitet haqida ta'limot. Patogen kokklar, pasterellyoz, saramas kasalligi qo'zg'atuvchilari, enterobakteriyalar, kuydirgi kasalligi, tuberkuloz, brutselloz, leptospiroz qo'zg'atuvchilari, patogen anaeroblar, patogen mitsetlar va mikoplazmalarning umumiy xususiyatlari, laboratoriya diagnozi, qo'llanadigan biopreparatlar.

### **VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI fani bo'yicha:**

Veterinariya-sanitariya ekspertiza fani oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini, chorva mollari, parranda, baliq go'sht, tuxum, asal va o'simliklardan olinadigan mahsulotlarni sanitariya jixatidan baxolash, shuningdek mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi hamda uning gigiena asoslarini o'rganish, shuningdek odam va xayvonlar uchun umumiy bo'lgan, asosan odamlar sog'lig'iga xavf tug'diradigan yuqumli va yuqumsiz xamda invazion kasalliklarni shuningdek chorvachilik mahsulotlari orqali xayvonlar orasida tarqaladigan kasalliklarning oldini olish va xar xil choralar kurishni veterinariya-sanitariya jixatidan nazorat kilib turishdir. Oziq-ovqat xavfsizligi nazorati fani barcha turdagi qishloq xo'jalik va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini tekshirish uslublari va ularni favqulotda vaziyatlarda veterinariya-sanitariya jixatidan baholash, hamda bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda texnologik asoslari va standartizatsiyasiga mos professional xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, shuningdek – ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, laboratoriya tekshirish usullari va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

### **VETERINARIYA VIRUSOLOGIYASI fani bo'yicha:**

Veterinariya virusologiyasining mazmuni, predmeti va metodi. Viruslarning tabiatda tutgan o'rni, paydo bo'lish qonuniyatlari, virus virionlarining tuzilishi, kimyoviy tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi, reproduksiyasi. Viruslarning genetikasi, ekologiyasi, patogenezini. Bir necha tur hayvonlarda umumiy bo'lgan viruslar. Yirik va mayda shoxli hayvonlarda kasallik chaqiruvchi viruslar. Cho'chqalarda kasallik chaqiruvchi viruslar. Otlar, parrandalar, baliq va

asalarilarda kasallik chaqiruvchi viruslar. Ularning umumiy xarakteristikasi, epizootologiyasi, virusologik, serologik diagnostikasi. Virusning identifikatsiyasi, differentsial, retrospektiv diagnostikasi. Kasal hayvonlardan, jasadidan virus saqlovchi materialni olish va transport vositasi orqali yuborish.

### **VETERINARIYA FARMAKOLOGIYASI fani bo'yicha:**

Dori moddalarning ta'sir mexanizmi, farmakokinetikasi va farmakodinamikasi. Dori moddalarni organizmga yuborish yo'llari va dozalari. Dori moddalarning organizmdagi biotransformasiyasi. Farmakologik moddalarni ta'sirini yuzaga kelishida tashqi va ichki muhitning ahamiyati. Markaziy nerv tizimini susaytiruvchi moddalar. Markaziy nerv tizimini qo'zg'atuvchi moddalar. Efferent nerv oxirlariga ta'sir qiladigan dori moddalari. Adrenergetik (simpatikotrop) moddalar. Afferent nervlar uchlariga susaytiruvchi moddalar. Afferent nervlar uchlarini qitiqlovchi moddalar. Oshqozon va ichaklarga ta'sir etuvchi moddalar. Yurak-qon tomir tizimiga ta'sir qiluvchi va siydik xaydovchi moddalar. Vitamin va vitaminsimon moddalar. Immunostimulyatorlar, fermentlar va garmonlar. Mineral moddalar. Antimikrob moddalar. Dezinfeksiyalovchi va antiseptik moddalar. Kimyoterapevtik moddalar. Antibiotiklar. Sulfanilamidlar va nitrofuranlar. Viruslarga qarshi qo'llaniladigan dori moddalari. Parazitalarga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi moddalar. Insektitsid va akaritsid vositalar.

### **VETERINARIYA DIAGNOSTIKASI fani bo'yicha:**

Umumiy diagnostika. Veterinariya vrachining professional etika asoslari. Hayvonlarni tekshirish usullari. Umumiy tekshirish usullari: ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va termometriya. Hayvonlarni tekshirganda veterinariya xodimlarining shaxsiy gigienasi, xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Hayvonlarni fiksatsiya qilish usullari. Hayvonlarni klinik tekshirish tartibi: ro'yxatdan o'tkazish, anamnez ma'lumotlarini to'plash. Hayvonlarni umumiy tekshirish: tashqi ko'rinishini (gabbitus) aniqlash, teri qoplamasini, teri hosilalarini, terini, shilliq pardalar va limfa tugunlarni tekshirish usullari va turlari, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va vrach xulosasini shakllantirish.

Yurak va qon-tomir tizimini tekshirish. Tizimning anatomo-fizilogik xususiyatlari. Yurak va qon tomirlarni umumiy va maxsus usullar bilan tekshirish. Yurak turtkisi va uning o'zgarishlari. Yurakni perkussiya qilish. Yurak chegaralari va ularning o'zgarishi. Yurakni auskultatsiya qilish. Yurak tonlari va ularning o'zgarishlari, tashxis qo'yishdagi ahamiyati. Yurak shovqinlari va ularning tasniflanishi: endokardial (organik va funksional), perikardial va kardiopulmonal shovqinlar. Yurak poroklari. Elektrokardiografiya va uning ahamiyati. Qon tomirlarini tekshirish. Arteriya qon tomirlari, arteriya pulsi, vena qon tomirlarini tekshirish va uning klinik ahamiyati. Arteriya va vena qon bosimlarini aniqlash. Qonning harakat tezligini aniqlash. Yurak aritmiyalari tasnifi va uni aniqlash. Yurak va qon-tomir tizimini funksional tekshirish. Yurak va qon-tomir tizimi kasalliklarining asosiy sindromlari.

Nafas tizimini tekshirish. Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, tekshirishning klinik ahamiyati. Yuqori nafas olish yo'llari, ko'krak bo'shlig'i va o'pkani tekshirish. Burun bo'shlig'i, qo'shimcha bo'shliqlar, hiqildoq va kekirdakni tekshirish. Yo'tal va uning xususiyatlari. Ko'krak qafasining shakli, hajmi va harakatchanligini tekshirish. Nafas olish soni, tipi va ritmi, nafas qisishi va uning turlarini aniqlash. Ko'krak qafasini paypaslash va perkussiya qilish. Sog'lom hayvonlar o'pkasidan eshitiladigan perkutor tovushlar. O'pka va plevra kasalliklarida perkutor tovushning o'zgarishi, uning diagnostik ahamiyati. o'pkani auskultatsiya qilish. Nafas olish tovushlarining hosil bo'lishi, tasnifi va diagnostik ahamiyati. Nafas olishning asosiy va patologik tovushlari. Tizimni maxsus tekshirish: plegafoniya, torakotsentez, rentgenologik tekshirishlar. Nafas olish tizimini funksional tekshirish. Nafas tizimi kasalliklari sindromatikasi.

Ovqat hazm qilish tizimini tekshirish. Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, tizim organlarini tekshirishning tartibi, usullari va ahamiyati. Ishtaha, oziqa va suv qabul qilish, chaynash va yutishni tekshirish va ularning buzilishlari. Kavsh qaytarish va kekirishni, qayd qilishni tekshirish va klinik ahamiyati. Og'iz bo'shlig'i shilliq pardalari, tishlar va tilni tekshirish. Tomoq va qizilo'ngachni, parrandalarning jig'ildonini tekshirish. Hayvonlar qorin bo'shlig'idagi organlarining topografiyasi. Kavshovchi hayvonlarda katta qorin, to'r qorin, qat qorin va shirdonni tekshirish. Katta qorin suyuqligini olish va tekshirish. Bir kamerali hayvonlarda oshqozonni tekshirish. Oshqozondan olingan moddalarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini tekshirish. Ichaklarni tekshirish. Tezaklash va tezakni tekshirish. Rektal tekshirish va uning diagnostik ahamiyati. Jigar tekshirish. Jigar kasalliklari sindromlari. Rentgenologik tekshirishlar. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari sindromatikasi.

Ayirish tizimini tekshirish. Ayirish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari, tekshirishning klinik ahamiyati. Siydik hosil bo'lishi. Siydik chiqarishni tekshirish va uning buzilishlari. Siydik oquvchi kanalchalar va qovuqni tekshirish. Siydik chiqarish kanalini tekshirish, kateterlash. Rentgenologik tekshirishlar. Siydikni tekshirish. Siydikni olish va saqlash usullari. Siydikning fizikaviy, kimyoviy xossalari tekshirish. Gemoglobinuriya, gematuriya, proteinuriya, glyukozuriya, ketonuriya, bilirubinuriyalarni aniqlash. Siydik cho'kmasini tekshirish. Tanosil a'zolari kasalliklarining asosiy sindromlari.

Asab tizimini tekshirish. Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, tekshirishning klinik ahamiyati. Markaziy nerv tizimi funksiyasi, bosh miya qopqog'i va umurtqa pog'onasi, sezgi a'zolari, yuzaki va chuqur sezuvchanlik, hayvonlarning faol harakati va harakat koordinatsiyasini va vegetativ asab tizimini tekshirish. Asab tizimi kasalliklarining sindromlari.

Qonni tekshirish. Hayvonlar qonini tekshirishning klinik ahamiyati, qonni olish, uni saqlash usullari. Qonni fizik va kimyoviy ko'rsatkichlarini tekshirish. Qonning ivivchanligi, retraksiyasi va eritrotsitlarning cho'kish tezligini aniqlash. Qondagi eritrotsitlar va leykotsitlar sonini, gemoglobin miqdorini, leykogrammani aniqlash. Kasalliklarda leykogrammaning o'zgarishi. Leykotsitar va gematologik profil. Qonning bioximik ko'rsatkichlarini aniqlash va diagnostik ahamiyati.

Moddalar almashinuvi buzilishining diagnostikasi. Moddalar almashinuvi to'g'risida umumiy tushunchalar. Moddalar almashinuvi buzilishini aniqlash tartibi va usullari: poda sindromatikasi tahlili; saqlash sharoitlari va oziqa ratsioni to'yimlilik tahlili; klinik tekshirish natijalari tahlili; qon va siydikni laborator tekshirish natijalari tahlili; suyaklarni rentgenografiya usuli bilan tekshirish natijalari tahlili. Oqsil, uglevod, yog', suv, makro- va mikroelementlar almashinuvi buzilishini; gipovitaminolarni aniqlash.

Rentgenodiagnostika. Rentgenologik tekshirishlar, rentgenologiya asoslari, rentgen kabinet, rentgen apparatlari va ularning tuzilishi, ishlash prinsipi. Rentgen nurlari va elektr tokidan himoya qilish vositalari. Rentgenografiya, rentgenoskopiya, flyuorografiya asoslari. Har xil kasalliklarda rentgenologik tekshirish usullari.

### **OPERATIV XIRURGIYA fani bo'yicha:**

Xirurgik infeksiya to'g'risida ta'limot. Antiseptika va aseptika to'g'risida ta'lumot, sterilizatsiya va dezinfeksiya qilish usullari.

Xirurgik infeksiyani oldini olish. Qo'lni operatsiyaga tayyorlash asoslari mexanik tozalash, kimyoviy dezinfeksiya va qotirish. Operatsiya maydonchasini tayyorlash asoslari va shilliq pardalar dezinfeksiyasi. Anesteziologiya. Narkoz va uni xirurgiya amaliyotida qo'llash. Hayvonni operatsiya qilishda og'riqsizlantirishning ahamiyati. Narkoz usullari. Har xil turdagi hayvonlar narkozi. Mahalliy og'riqsizlantirish ahamiyati va qo'llash usullari. Mahalliy og'riqsizlantirishning turlari. Xirurgik operatsiya elementlari va to'qimalarni ajratish. Qon oqishini to'xtatish. YUmshoq tuimallarni ajratish (qoida va usullari). Ajratish turlari: shakliga, yo'nalshiga va chuqurligiga qarab. Qon oqishi turlari. Qon oqishini oldini olish, vaqtinchalik va batamom to'xtatish usullari. To'qimalarni birlashtirishning umumiy prinsiplari. Xirurgik chok turlari: uzlikli choklar, uzliksiz choklar. Maxsus choklar: ichaklarga qo'llaniladigan (qo'llash xususiyatlari, prinsiplari va turlari). Pay, nerv, qon tomirlarni birlashtiruvchi choklar.

Bosh soxasining anatomo-topografik tuzilishi. Burun, shox va miyada o'tkaziladigan operatsiyalar. Boshning anatom-topografik tuzilishi, qismlarga bo'linishi, chegaralari. SHoxda o'tkaziladigan operatsiyalar. Qorako'l qo'ylarda senuroz kasalini operatsiya yo'li bilan davolash. Tish, til va ko'zda o'tkaziladigan operatsiyalar. Bo'yinning ventral qismida o'tkaziladigan operatsiyalar. Anatom-topografik ma'lumotlar. Ko'krak sohasidagi operatsiyalar. Ko'krak devori va ko'krak qafasida joylashgan organlarning anatomo-topografik ma'lumoti.

Qorin sohasi anatomo-topografik tuzilishi va qorin bo'shlig'idagi organlarda operatsiya utkazish texnikasi. Laparotomiya va ruminotomiya. Qorinning yonbosh va ventral devorini anatom-topografik tuzilishi. Itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To'g'ri ichakda o'tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo'li bilan davolash. Kindik, qorin yonbosh devoridagi dabbalarni operatsiya qilish.

Erkak hayvonlarni jinsiy a'zosida o'tkaziladigan operatsiyalar. Anatom-topografik ma'lumotlar. Ayg'irlar jinsiy a'zosi amputatsiyasi. Erkek hayvonlarni axtalash.

Chov kanalining anatom-topografik tuzilishi. Urg'ochi cho'chqalar ovarioektomiyasi. Chot oblasti va tos bo'shlig'i organlarida o'tkaziladigan operatsiyalar. Siydik ayirish a'zolarida o'tkaziladigan operatsiyalar. Siydik ayirish organlari haqida anatom-topografik ma'lumotlar. Uretrotomiya, uretrotomiya, sistotomiya texnikasi. Oyoqlarning anatomo-topografik tuzilishi. Nurlarni og'riqsizlanturish. Oldingi oyoqning otlar va shohli hayvonlarda anatomo-topografik tuzilishi Anatom-topografik ma'lumotlar. Orqa oyoqning anatom-topografik ma'lumotlari, chegaralari, sohalarga bo'linishi, tashqi orientirlari. Punksiyalar: tizza, boldir bo'g'inlari va tarzal pay qinining paylardagi operatsiyalar. Oyoq amputatsiyasi va ekzartikulyasiyasi texnikasi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия незаразных болезней животных. Москва, 2005.
5. Norboev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, N.Doba, 2007.
6. Norboev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Samarqand, 2009.
7. Bakirov B.B. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, “OPTIMA PRINT PLUS”, 2015. – 414 B.
8. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika va rentgenologiya. Darslik. Toshkent, 2020.
9. Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B., Safarov M.B. Fermer xo‘jaliklarida mahsuldor qoramollarni uyg‘un dispanserlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2012.
10. Azizova S.S. “Farmakologiya”. Darslik. Toshkent, 2000 yil.
11. Arestov I.G., Tolkach N.G. “Veterinarnaya toksikologiya” Minsk . 1999
12. Машковский М.Д. Лекарственные средства. Справочник. Москва, 1998 год.
13. Роудер Д. “ Ветеринарная токсикология” Москва, 2008.
14. Ступников А.А. «Токсичность гербицидов и арбоцидов и профилактики отравлений животных». Москва, 1998
15. S.M.Murodov. Chorvachilik va o‘simlik mahsulotlarining vetsanekspertizasi va texnologiya asoslari. Qo‘llanma Samarqand 1992 y.
16. S.Murodov. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining vetsanekspertizasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va standartizatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 1997 yil.
17. S.M.Murodov. Veterinariya–sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand 2006 yil.

**18.** Murodov S.M. va boshqalar. «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining Veterinariya-sanitariya ekspertizasi, qayta ishlash texnologiyasi, gigienasi va standartizatsiyasi» Darslik - 2013 yil.

**19.** R.Normaxmatov. Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi asoslari. Tafakkur nashriyoti. Toshkent 2009.

**20.** Shapulatova Z.J. Veterinariya mikrobiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «O‘zbekiston faylaso‘flari milliy jamiyati», 2019 yil.

**21.** Bazarov X.K., Abdulakimova A.B. Veterinariya virusologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2016 yil.

**22.** Salimov X.S., Qambarov A.A. Epizootologiya. Darslik. 2016 yil.

**23.** Троценко Н.И., Белоусова Р.В., Преображенская Е.А. Практикум по ветеринарной вирусологии. Учебная пособия. М., Колос, 2000 год.

**24.** Кисленко В.Н., Колычев Н.М., Ветеринарная микробиология и иммунология. Часть 1, Общая микробиология. М.2006 г.

**25.** Кисленко В.Н., Колычев Н.М., Суворина О.С. Ветеринарная микробиология и иммунология. Часть 3, М.2007 г.

**26.** Ergashev E.H., Abduraxmonov T.A. Chorva mollarining gelmintozlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Mehnat», 1992 yil.

**27.** Haqberdiev P.S., Qurbanov SH.X. Parazitologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2015 yil.

**28.** Haqberdiev P.S., Ibragimov F.B. Veterinariya protozoologiyasi va araxnoentomologiyasi”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2019 yil

**29.** Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo‘ldoshev N.E. Veterinariya gelmintologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2016 yil.